

Maloxat Yulchiyevna Badalbayeva

Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi dotsenti

E-mail: maloxat.yulchiyevna@mail.ru

Tel: +998880750816

UDK: 091.122.132

**INGLIZ TERMINOLOGIYASI MATERIALLARI ASOSIDA
FAVQULODDA VAZIYATLAR ATAMALARINI O‘ZBEK TILIGA
TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI**

Annotatsiya. Mazkur maqola til kategoriyalarining ifodalanishiga asoslangan favqulodda vaziyatlar terminologiyasini murakkab terminologik tizim sifatida tahlil etishga bag‘ishlangan. Favqulodda vaziyatlar leksikasini XX-XXI asrlar chegarasida paydo bo‘lgan eng yangi atamalar qatoriga kiritish mumkin. Uning vujudga kelishi bir nechta ijtimoiy-lingvistik omillar bilan bog‘liq. Maqolada favqulodda vaziyatlar leksikasining to‘rt jihatini, ya’ni uning kategoriyalashtirish nuqtai nazaridan o‘ziga xosligi, maxsus til birliklarining kelib chiqish masalalari, tildagi tizimli munosabatlar nuqtai nazaridan favqulodda vaziyatlar terminlari, maxsus belgilar shaklining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: atama, kategoriya, toifalash, favqulodda vaziyatlar terminologiyasi, milliylashtirish, qisqartmalar.

Малохат Юлчиевна Бадалбаева

Доцент Академии МЧС

E-mail: maloxat.yulchiyevna@mail.ru

Тел: +998880750816

**ПЕРЕВОД ТЕРМИНОЛОГИИ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ НА
УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК НА МАТЕРИАЛАХ АНГЛИЙСКОЙ
ТЕРМИНОЛОГИИ: АНАЛИЗ И ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ**

Аннотация. Статья посвящена анализу терминологии чрезвычайных ситуаций как сложной терминологической системы, основанной на выражении языковых категорий. Лексику чрезвычайных ситуаций можно

считать одним из новейших терминов, появившихся на рубеже XX и XXI веков. Ее возникновение связано с несколькими социолингвистическими факторами. В статье рассмотрены четыре аспекта лексики чрезвычайных ситуаций, а именно ее уникальность с точки зрения категоризации, вопросы происхождения специальных языковых единиц, термины чрезвычайных ситуаций с точки зрения системных отношений в языке, особенности формы специальных знаков.

Ключевые слова: термин, категория, категоризация, терминология чрезвычайных ситуаций, национализация, аббревиатуры.

Maloxat Yulchiyevna Badalbayeva

Associate Professor of the Academy of the Ministry of Emergency Situations

E-mail: maloxat.yulchiyevna@mail.ru

Phone: +998880750816

TRANSLATION OF THE TERMINOLOGY OF EMERGENCY SITUATIONS INTO UZBEK BASED ON MATERIALS FROM ENGLISH TERMINOLOGY: ANALYSIS AND THEORITICAL APPLICATION

Abstract. This article is dedicated to the analysis of emergency terminology as a complex terminological system based on the expression of language categories. Emergency vocabulary can be considered one of the newest terms that emerged at the turn of the 20th and 21st centuries. Its emergence is linked to several socio-linguistic factors. In the article, we covered four aspects of the vocabulary of emergency situations, namely its uniqueness from the point of view of categorization, issues of the origin of special language units, terms of emergency situations from the point of view of systemic relations in the language, peculiarities of the form of special signs.

Keywords: term, category, categorization, emergency situations terminology, nationalization, abbreviations.

Kirish.

Taraqqiy etayotgan jamiyatlar tabiiy va texnogen xarakterdagi xavf-xatar va tahdidlarga tobora koʻproq duch kelmoqda. Har qanday harbiy harakatlar olib

borilayotganda yoki shu harakatlar natijasida yuzaga keladigan xavf-xatarlar o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Jumladan, milliy favqulodda vaziyatlar terminologiyasida (keyingi o'rinlarda - FV terminologiyasi) global avariya maxsus birligi qayd etiladi, u "butun insoniyat hayoti uchun xavf tug'diradi va atrof-muhitga keng ko'lamli tabiiy va texnogen ta'sirlar (FVni qo'llagan holda harbiy harakatlar, kosmik jismlarning yerga qulashi, AESdagi halokatlar va boshqalar) bilan bog'liq" [1]. Shu munosabat bilan dunyoning deyarli barcha davlatlari va bir qator xalqaro tashkilotlar avariya, halokatlar va tabiiy ofatlarning oldini olish, shuningdek, ularning oqibatlarini bartaraf etishning yanada samarali yo'llari va usullarini izlamoqda. Shu o'rinda bu jarayonlarda favqulodda vaziyatlarning standartlashtirilgan xalqaro atamashunosligiga asoslangan kasbiy muloqot muhim rol o'ynaydi. Yuqorida aytilganlarning barchasi favqulodda vaziyatlar terminologiyasini turkumlashtirish (kategoriyalash) mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Zamonaviy terminologik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, milliy terminshunoslikda hali-hanuz FV terminologiyasini o'rganish, xususan, uning ma'no tushunchasi bilan tasniflash imkoniyatlari bilan bog'liq masalalar to'liq yoritilmagan.

Adabiyotlar tahlili.

Favqulodda vaziyatlar terminologiyasini uning o'ziga xos semantik, strukturaviy va ma'no tushunchasiga oid xususiyatlarini aniqlash maqsadida o'rganish ilmiy jihatdan dolzarb va istiqbolli hisoblanadi.

V.M.Leychik tomonidan taklif etilgan davrlashtirishga ko'ra, "atamashunoslik o'z taraqqiyotida to'rt bosqichni bosib o'tib, beshinchi bosqichga qadam qo'ydi. Bu bosqich atamashunoslikning zamonaviy fanlar tizimidagi o'rni o'zgarishi bilan xarakterlanadi... Kognitiv terminshunoslik ajralib chiqdi..." [6]. Ko'pgina olimlar yuqoridagi fikrdan kelib chiqib, bu davrni kognitiv davr deb atashadi. V.F.Novodranova shunday yozadi: "Atamashunoslik o'zining kognitiv rivojlanish davriga kirdi va terminning mohiyati haqidagi an'anaviy savollarini qayta ko'rib chiqishiga to'g'ri keladi... bu maxsus maqsadlar uchun til, atama ortida turgan bilim tuzilmalari, kasbiy muloqot, fanning kognitiv xaritalari va

boshqalar haqida yangi muammolarni o'z oldiga qo'yadi" [7]. Kognitiv terminologiya (atamashunoslik)ning markaziy muammosi til birliklari (terminlar) va ular ortidagi kasbiy bilim tuzilmalari (muayyan iyerarxiya bilan birlashtirilgan va terminda obyektivlashtirilgan tushunchalar yig'indisi) o'rtasidagi munosabatlar muammosiga aylanadi. Terminologiyaga mutaxassislarning kasbiy bilimlarni konseptuallashtirish va verballashtirishdan iborat kognitiv faoliyati natijasi sifatida qaraladi. Konseptuallashtirish darajasi allaqachon shakllangan bilimlar darajasiga, atama kiritilishi kerak bo'lgan atamashunoslik tizimga va mutaxassislarning kasbiy va til kompetensiyalariga bog'liq. Bu jarayonlarda, tabiiyki, til muhim rol o'ynaydi. Til olamning inson aqli tomonidan qanday ko'rilgani va anglanishini, uning ong tomonidan qanday singanligini va kategoriyalashtirilganligini aniqlaydi, obyektivlashtiradi. [4]. Yu.V.Slogenikina terminologiyani faoliyatning ma'lum bir sohasida bilimlarni to'plash va anglash natijasida maxsus so'zlarning stixiyali tarzda shakllangan birlashmasi sifatida ta'riflaydi. Terminologiya qarama-qarshiliksiz ilmiy nazariya shakllanib, uni tavsiflash meta tilida asosiy tushunchalar va ular o'rtasidagi aloqalar izohlanganda atamalarni tizimlash darajasiga ko'tariladi [8]. Y.V.Bekishevaning fikricha, "kognitiv-kommunikativ paradigma nuqtai nazaridan toifalashtirish - bu nutq-fikr faoliyatida fikr predmetini ma'lum bir tushuncha kategoriyasi va ma'lum bir til belgisi bilan bog'laydigan dinamik jarayonning in'ikosidir [1].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ingliz terminologiyasi materiallari asosida favqulodda vaziyatlar atamalarini o'zbek tiliga tarjima qilish xususiyatlariga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, analogik tahlil kabi uslublaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Kategoriyalash (toifalash) jarayoni, bir tomondan, kognitiv va ruhiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan, ikkinchi tomondan, kognitiv tasniflash va bo'linishning konseptual tuzilmalari va tamoyillarini aks ettirishning umumiy muammosini ochib bera oladigan o'zaro bog'liq jihatlar majmuasini jalb qiladi» [6].

“Toifa” tushunchasining ta’rifiga murojaat qilamiz. “Xorijiy tillardagi soʻzlarning izohli lugʻati”da “toifa” tushunchasiga (yunoncha kategoria - asosiy va umumiy belgi) uchta ta’rif berilgan: 1) obyektiv olamdagi predmetlar, hodisalarning (materiya, vaqt, makon, harakat, sababiyat, sifat, miqdor va boshqalar) eng muhim xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiruvchi umumiy tushuncha; 2) biror belgilarning umumiyliги bilan birlashtirilgan predmetlar, hodisalar, shaxslar toifasi; 3) terminlar, munosabatlar toifasini yoki ularning eng umumiy belgisini aks ettiruvchi jins tushunchasi [7]. Kognitiv tilshunoslikning paydo boʻlishi bilan “toifa” tushunchasi sifat jihatidan yangi taraqqiyotga erishdi. “Kognitiv terminlarning qisqacha lugʻati” mualliflari “toifa”ni “inson tafakkurining uning tajribasini umumlashtirish va tasniflashni amalga oshirishga imkon beradigan kognitiv shakllaridan biri” sifatida talqin qiladilar [8]. “Hodisalarni tasniflash, ularni turli sinflar, toifalar va toifalarga ajratish qobiliyati shundan dalolat beradiki, inson dunyoni idrok etishda bir obyektning boshqa obyektga oʻxshashligi, ularning oʻxshashligi yoki aksincha, farqlari haqida fikr yuritadi. Kategoriyalashtirish - bu dunyoni idrok etishga tartibli tus berish, qandaydir kuzatilayotgan narsani tizimlashtirish va unda boshqa hodisalarning farqiga qarama-qarshi oʻlaroq, baʼzi hodisalarning oʻxshashligini koʻrishning asosiy usulidir,” - deb yozadi Y.S.Kubryakova [4]. E.V.Bekisheva abstraksiya darajasiga qarab kategoriyalarning bir necha turlarini ajratadi: ontologik kategoriyalar eng keng qamrovli boʻlib, voqelikning xususiyatlari bilan uning eng umumiy xususiyatlari va aloqalari bilan bogʻliq; gnoseologik kategoriyalar bilish jarayoni natijasida ajralib turadi; intizomiy kategoriyalar dunyoning maxsus manzaralarini, masalan, ilmiy yoki kasbiy yondashuv nuqtai nazaridan tasvirlaydi [1].

Tahlil qilinayotgan atamalar tizimi favqulodda vaziyatlar turlari, ularni bartaraf etish boʻyicha koʻrilayotgan chora-tadbirlar va jalb qilingan inson resurslari va texnik vositalar, shuningdek, sogʻliqqa yetkazilgan moddiy zarar va jismoniy shikastlanish turlari xilma-xilligi bilan bogʻliq murakkab tematik tuzilishga ega. S.V.Grinevning fikriga koʻra, terminologiyaning shakllanishi va

rivojlanishi haqida fikr yuritganda, maxsus birliklarni farqlash kerak: tayanch - milliy tilning tegishli predmet-tushuncha maydonidan o'zlashtirilgan yoki biror atamalar tizimi shakllanishining dastlabki paytida paydo bo'lgan; bir (o'z) sohaviy terminologiyaga tegishli va boshqa bilim sohalaridan olingan (o'zlashgan) [6]. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq kasbiy faoliyat sohasiga xizmat qiluvchi FV terminologiyasi kompleks xarakterga ega. Unda faqat shu nazariy-amaliy sohada faoliyat yurituvchi o'z atamalari, shuningdek, boshqa bilim sohalaridan jalb qilingan - harbiy, tibbiy, yuridik, texnik, muhandislik, transport, ekologik, biologik, geologik, fizik, kimyoviy, meteorologik, sotsiologik, psixologik, dengiz, aviatsiya, kompyuter, iqtisodiy kabi sohalar atamalari keltirilgan. FV terminologiyasining bunday lingvistik maqomini hisobga olgan holda, ushbu atamalar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda kategorial tahlilni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Favqulodda vaziyatlar leksikasi tizimli kategoriyalar nuqtai nazaridan. FV terminologiyasida kategoriyalar tizim hosil qiluvchi kategoriyalar hisoblanadi, chunki ular asosida terminlarning mavzuiy klasterlari va terminologik lug'atlarning uyali tashkil etilishi shakllanadi. Mavzuviy jihatdan FV termin tizimini quyidagi kategoriyalar bilan ifodalash mumkin: Accident, Emergency Assistance (actions), Emergency Medicine, Law, Aggression, Technical Support, Psychology, Sociology. Sanab o'tilgan kategoriyalarning har biri, garchi o'z asosiy atamalari va o'ziga xos periferiya lug'ati bilan ifodalangan bo'lsa-da, boshqa tizimli kategoriyalar bilan tushunchasi jihatdan, demak, leksik jihatdan ham chambarchas bog'liq bo'lib, yagona terminologik tizimni tashkil qiladi.

Bir necha toifadagi terminlar tahlili misolida mazkur atamalar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini keltiramiz. "Accident" - hodisa, baxtsiz hodisa, nohush hodisa, halokat. "Accident" kategoriyasi leksikasining mutlaq ko'p qismini ko'p so'zli terminlar tashkil etadi, bu esa ushbu tushuncha ortidagi turli xil ontologik manzarani aks ettiradi, masalan: industrial accident (sanoat (ishlab chiqarish) halokati), radiation accident (radiatsiya halokati), actual accident (haqiqiy halokat), threatened accident (ehtimoliy halokat), large-scale accident (yirik miqyosdagi

halokat), ecological accident (ekologik halokat), nuclear accident (yadro halokati), tragic accident (fojiali baxtsiz hodisa), atomic power-plant accident (atom elektr stansiyasidagi halokat) va h.k. Ushbu mavzuiy guruhda predlogli sintaktik qurilmalar yuqori mahsuldor, masalan, accident with spill of biologically dangerous substances at industry (korxonada biologik xavfli moddalar tashlanishi bilan sodir bo'lgan halokat). Shunday qilib, "accident" kategoriyasini ifodalovchi terminlar "accident, disaster, catastrophe, calamity, casualty, crash, cataclysm, crisis, etc." turkum terminlari bilan turkum tamoyili asosida tuzilgan bo'lib, izohli va tarjima lug'atlarida mavzuiy uyalar hosil qiladi. Sanab o'tilgan tayanch terminlar mavzuiy uyalarda cloudburst (jala), civil commotion (fuqarolar tartibsizligi), earthquake (zilzila), arson (o't qo'yish) kabi aniqlashtiruvchi leksika bilan o'ralgan [5].

Bir so'zli terminlar "accident" toifasidagi barcha terminlarning atigi 10% ni tashkil qiladi, masalan, lightning - chaqmoq chaqishi, airburst - havo portlashi va boshqalar. Ingliz tilidagi terminologik lug'atni o'zbekcha muqobili bilan taqqoslaymiz. "halokat" atamasining semantikasini quyidagi semalar majmui bilan ifodalash mumkin: "sababiyat – oqibat" - bu jarohat, vayronagarchilik, hayot va sog'liqqa tahdid, zarar; "obyekt" - odamlar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari, ishlab chiqarish jarayoni, atrof-muhit; "munosabat – sharoit" - xavfli ishlab chiqarish, nazorat qilinmaydigan hodisalar; "makon - cheklangan makon" - obyekt, muayyan hudud, akvatoriya. Halokat atamasi ma'nosining periferiyasida "borliq moduslari - imkoniyat, kutilmaganlik, xavf-xatar" qo'shimcha semalarini aytish mumkin; "tartib" – me'yordan chetga chiqish; "miqdor" - me'yorning o'rtacha statistik qiymati.

Xulosa.

Biz faqat favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq kasbiy soha tushunchalari va toifalarini aks ettiruvchi leksik vositalarning asosiy o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'tdik. Dastlabki tadqiqotlar ba'zi xulosalarni chiqarishga imkon berdi. Favqulodda vaziyatlar terminologiyasining turkumlanishi maxsus "to'r", olamga me'yordan chetga chiqish, inqiroz, noodatiy hodisa prizmasi orqali alohida

qarashni aks ettiruvchi tizimli kategoriyalar bo'yicha sodir bo'ladi. FV leksikasi, asosan, adabiy tildagi so'zlar yoki o'zlashgan terminlar asosida shakllanadi, ular o'ziga xos turdagi belgilarni oladi va o'z semantikasini tor kasbiy soha doirasida ifodalaydi. FV leksikasida uning yadrosini tashkil etuvchi asosiy terminlar ham, chetdan kirgan til birliklari ham mavjud. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan FV leksikasi fondi ham milliylashtirilgan terminologiya, ham yunon-lotin inventari bilan ifodalanadi. Ko'pgina atamalarning murakkab sintaktik tuzilishiga ko'ra, shakl nuqtai nazaridan abbreviatsiyaning FV leksik birliklarini ifodalashdagi muhim o'рни haqida gapirish mumkin. Tizimlilik nuqtai nazaridan FV terminlari polisemiya, variantlilik kabi xilma-xil lisoniy munosabatlarga kirisha oladi.

Adabiyotlar

1. Бекишева Е.В. Категориальные основы номинации болезней и проблем, связанных со здоровьем. – Самара: Содружество, 2007. – 250 с.
2. Гражданская защита: Энциклопедический словарь. 3-е изд., перераб. и доп. / под общ. ред. В.А. Пучкова. М.: ФГБУ ВНИИ ГОЧС (ФЦ), 2015. – 664 с.
3. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. – М.: Эксмо, 2006. – 944 с.
4. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: Яз. славянской культуры, 2004. – 555 с.
5. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов / под общ. ред. Е.С. Кубряковой. – М.: Филол. фак-т МГУ, 1996. – 245 с.
6. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. 2-е изд. – М.: УРСС, 2006. – 261 с.
7. Новодранова В.Ф. Именное словообразование в латинском языке и его отражение в терминологии. *Laterculi vocum Latinarum et terminorum*. – М.: Языки славянских культур, 2008. – 328 с.

8. Сложеникина Ю.В. Основы терминологии: Лингвистические аспекты теории термина. 2-е изд. – М.: Либроком, 2016. – 120 с.
9. Сложеникина Ю.В., Растягаев А.В. Философский диалог об именах: Платон, Сумароков, современное состояние // Онтология проектирования. 2015. Т. 5, № 4 (18). – С. 463-471.